

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 2-son

VOLUME 8 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.06.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4. Shartli 18,6 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 87.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 18,6. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 87.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgohk street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 24.06.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p.18,6. Unit: 100.

Order: 87.

Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
O'zbekistonda strategik rejalashtirishni huquqiy ta'minlash masalasi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**
O'zbekistonda soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari
- 32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Saylov jarayoni ishtirokchisi sifatida siyosiy partiyalar: milliy qonunchilik va uni takomillashtirish
- 43 **MUSTANOV ILXOM ABIDVALIJONOVICH**
Banklar faoliyatini nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 62 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLOMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Raqamli aktivlarni himoya qilish: O'zbekiston kriptobirjalari ekotizimi uchun kiber xavfsizlik imperativlari
- 73 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**
Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlari: nazariya va amaliyot
- 87 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Raqamli obyektlarni vasiyat qilish: meros qoldiruvchining so'nggi istagini amalga oshirish muammolari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish
- 113 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida harakatsizlik va uning turlari: tahlil va taklif
- 125 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH**
Xorijiy mamlakatlarda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati ahvoli
- 137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish masalalari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Yuridik terminologiyada sinonimiya va polisemiya
- 155 **KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich – taniqli olim, O'zbekiston zamonaviy fuqarolik huquqi maktabi vakili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ

К вопросу о правовом обеспечении стратегического планирования в Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

19 НОРМАТОВ БЕКЗОД АКРАМ УГЛИ

Вопросы совершенствования правового регулирования налоговых проверок в Узбекистане

32 ИСТАМОВ МАХМУД ШУХРАТОВИЧ

Политические партии как участники избирательного процесса: национальное законодательство и его совершенствование

43 МУСТАНОВ ИЛЬХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Организационно-правовые механизмы контроля банковской деятельности: сравнительно-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

62 ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ, РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ

Защита цифровых активов: императивы кибербезопасности для экосистемы криптобирж Узбекистана

73 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Основания и последствия лишения родительских прав: теория и практика

87 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Завещание цифровых объектов: проблемы реализации последней воли наследодателя

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

97 ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ,

Совершенствование мер ответственности за такие преступления, как незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов

113 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Бездействие и его виды в уголовном праве: анализ и предложения

125 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Состояние прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в зарубежных странах

137 ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ

Вопросы смягчения наказания в отношении юридических лиц по уголовному законодательству зарубежных стран

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

147 ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА

Синонимия и полисемия в юридической терминологии

155 КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРМ МАМИРОВНА

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич – выдающийся учёный, представитель современной цивилистической школы Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
On the issue of legal support for strategic planning in Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

- 19 NORMATOV BEKZOD AKRAM UGLI**
Issues of improvement of legal regulation of tax inspections in Uzbekistan
- 32 ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Political parties as participants of the electoral process: national legislation and its improvement
- 43 MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**
Organizational and legal mechanisms for control of banking activities: comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 62 GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Protecting digital assets: cybersecurity imperatives for Uzbekistan's crypto exchange ecosystem
- 73 MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**
Foundations and consequences of deprivation of parental rights: theory and practice
- 87 EGAMBERDIEV EDUARD KHAZHIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Bequest of digital objects: problems of realisation of the last will of the testator

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 97 OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Improving liability measures for crimes involving the illegal handling of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues
- 113 KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**
Inaction in criminal law and its types: analysis and proposals
- 125 ABDUKHAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**
The state of prosecutorial control over execution of land legislation in foreign countries
- 137 ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Issues of mitigation of punishment for legal entities in the criminal legislation of foreign countries

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 147 GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Synonymy and polysemy in legal terminology
-
- 155 KARAXODJAEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich – an outstanding scientist, a representative of the modern civil school of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 21.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.2./BLMP2690

UDC: 346.62(045)(575.1)

BANKLAR FAOLIYATINI NAZORAT QILISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Mustanov Ilxom Abdivalijonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0000-0203-2776
e-mail: ilxomabdivalijonovich@gmail.com

Annotatsiya. Muallif mazkur maqolada Markaziy bank tomonidan banklar faoliyatini nazorat qilish tartibi, shakllari va usullarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi tadqiqot natijasida banklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Markaziy bankning asosiy vazifasi moliya bozori, narx-navo va hisob-kitoblarning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, Markaziy bank moliya tizimi barqarorlikni ta'minlash uchun zarur yuridik instrument va moliyaviy ta'sir etish vositalariga qonunda belgilangan tartibda ega bo'ladi. Moliya tizimida banklar, ularning likvidligi, risklardan himoyalanganligi, omonatchilarning huquq va manfaatlari kafolatlanganligi birinchi darajali masala bo'lib, mazkur qoidalarga amal qilmagan banklarga belgilangan tartibda choralar qo'llanadi. Markaziy bank banklarni ikki usulda nazorat qiladi: birinchi usul – tartibga solish usuli bo'lib, unda faoliyatga doir biror harakatni amalga oshirish tartibini alohida nizom va qoidalar bilan belgilab beradi; ikkinchi usul – prudensial nazorat bo'lib, unda Markaziy bank banklar faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlariga me'yoriy qoidalar belgilaydi. Ammo mazkur jarayonlar belgilangan tartibda qonunchilikda adolatli mustahkamlangan bo'lishi lozim. Mazkur masalalarni milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, tarixiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy, statistik va boshqa usullar yordamida o'rganish orqali milliy qonunchilikda banklarni nazorat qilish uchun qo'yilgan talablarni tizimlashtirish va banklarga qo'llanadigan choralarga doir takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflar ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, qonunni qo'llash amaliyoti, bank qonunchiligi normalarini sharhlash va milliy qonunchilikni takomillashtirishda qo'llanadi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, bank nazorati, prudensial nazorat, choraб sanksiya, makroprudensial siyosat, bank qonunchiligi, bank huquqbuzarligi.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Мустанов Ильхом Абдивалижонович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье автор проанализировал процедуры, формы и методы контроля за деятельностью банков со стороны Центрального банка. Целью данного исследова-

ния является выработка в результате исследования предложений и выводов, направленных на совершенствование системы банковского контроля. Основной задачей Центрального банка является обеспечение стабильности финансового рынка, цен и расчётов. Исходя из этой цели, Центральный банк располагает необходимыми правовыми инструментами и средствами финансового воздействия для обеспечения стабильности финансовой системы в соответствии с законодательством. В финансовой системе банки, их ликвидность, защита от рисков, гарантирование прав и интересов вкладчиков являются вопросами первого уровня, и к банкам, не соблюдающим эти правила, применяются соответствующие меры. Центральный банк контролирует банки двумя способами, первый способ – регулирование, при котором он определяет порядок осуществления действий, связанных с его деятельностью, отдельными положениями и правилами. Второй метод – пруденциальный контроль, при котором Центральный банк устанавливает правила регулирования экономической деятельности банков. Однако эти процессы должны быть справедливо закреплены в законодательстве в установленном порядке. Путём изучения этих вопросов при помощи сравнительного анализа отечественного и зарубежного законодательства, историко-правовых, системных, логических, статистических и других методов разработаны предложения по систематизации требований и применяемых мер, предъявляемых к контролю над банками в национальном законодательстве. Эти предложения могут использоваться в научной деятельности, законотворчестве, правоприменении, толковании банковского законодательства, совершенствовании национального законодательства.

Ключевые слова: Центральный банк, банковский надзор, пруденциальный надзор, мера санкция, макропруденциальная политика, банковское законодательство, банковское правонарушение.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR CONTROL OF BANKING ACTIVITIES: COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

Mustanov Ilkhom Abdivalijonovich,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the author analyzed the procedures, forms, and methods of control over the activities of banks by the central bank. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at improving the banking control system as a result of the study. The main task of the Central Bank is to ensure the stability of the financial market, prices, and settlements. Based on this goal, the central bank will have the necessary legal instruments and financial leverage to ensure the stability of the financial system in accordance with the law. In the financial system, banks, their liquidity, protection from risks, and guaranteeing the rights and interests of depositors are first-level issues, and measures are applied to banks that do not comply with these rules in the prescribed manner. The Central Bank controls banks in two ways. The first method is the regulatory method, in which it determines the procedure for carrying out actions related to its activities and individual regulations and rules. The second method is prudential control, in which the central bank sets rules for regulating the economic activities of banks. However, these processes must be fairly enshrined in legislation in the prescribed manner. By studying these issues through a comparative analysis of domestic and foreign legislation using historical, legal, systemic, logical, statistical, and other methods, proposals have been developed to systematize the requirements for control over banks in national legislation and the measures applied. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement, the interpretation of banking legislation, and the improvement of national legislation.

Keywords: Central bank, banking supervision, prudential supervision, measure, sanction, macro.

Kirish

Markaziy bank va Markaziy bank vazifasi yuklatilgan boshqa vakolatli organ mamlakatda moliya-bank tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida bank nazoratini amalga oshiradi.

Bank nazorati vakolatli organ tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida qonunchilik yoki o'zi tomonidan o'rnatilgan qoidalarga banklar tomonidan amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyini tashkil etadi. Milliy va xorijiy davlatlarning qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ikkinchi bo'g'indagi banklar faoliyati birinchi bo'g'in Markaziy bank tomonidan boshqariladi va tartibga solinadi. Umuman olganda, bank nazorati prudensial va regulativ shakllarda amalga oshiriladi.

Markaziy bank tomonidan bank va no-bank tashkilotlarga qo'llanadigan chora va sanksiyalar bank nazoratining bir shakli hisoblanadi hamda mazkur choralar orqali markaziy bank moliya-bank tizimida nosog'lom institutni reabilitatsiya qiladi yoki tugatadi.

Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan chora va sanksiyalarning maqsadi bank tizimi barqarorligini ta'minlash, omonatchilar va boshqa kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va bank qonunchiligi buzilganda, javobgarlik muqarrarligini ta'minlashdan iborat.

Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan umumiy chora va sanksiyalarga quyidagilar kiradi: 1) huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ogohlantirish; 2) huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma; 3) bank operatsiyalarining ayrim turlarini to'xtatish; 4) bank operatsiyalarining ayrim turlari bo'yicha litsenziyani bekor qilish; 5) bank operatsiyalari bo'yicha litsenziyani chaqirib olish; 6) jarima.

Banklar faoliyatini nazorat qilish milliy va xorijiy olimlar, xususan, S. Norqobilov, H. Dadaboyeva, O'. Jo'rayev, B. Berdiyarov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Zulyarov,

A. Li, O. Rahimova, Sh. Bozarov, E. Hojiyev, F. Samig'jonov, V. Davlatov, I. Ergashev, E. Rahmatov, B. Berdiyarov, A. Abdullayev, Sh. Abdullayeva, A. Rahimova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shunga qaramasdan, banklar faoliyatini nazorat qilishni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish lozim.

Material va metodlar

O'zbekistonda bank faoliyatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda bank huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Albatta, nazoratning asosiy maqsadi aholini, qolaversa, mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir. Bank nazoratini amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqadi va ular quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan, banklar mamlakat aholisi jamg'armasining asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi. Chunki banklarning asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, bank daromadliliigi uning likvidligi bilan teskari mutanosiblikda bo'lgan holda, risk bilan to'g'ri mutanosiblikdadir. Bu esa ba'zi hollarda banklarning investitsion va kredit portfeli yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bank mijozlari esa bank ro'baro' kelayotgan risk haqida to'liq ma'lu-

motga ega bo'lmaydi. Demak, bankning riskni qabul qilish ehtimolining oshishi mamlakat aholisi jamg'armasining jiddiy zarar ko'rishiga olib keladi. Bankning salbiy faoliyatidan aholi jamg'armalarining faqat qisqa muddatli yuqori likvidli depozitlarga qo'yilgan qismi zarar ko'rib qolmay, balki uzoq muddatli jamg'armasi, masalan, pensiya fondiga ajratilgan ajratmalar ham jiddiy zarar ko'rish mumkin. Bu esa bank nazoratining naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bank kreditorlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va individual shaxslar o'z faoliyatlarini rivojlantirish, turmush farovonliklarini oshirish uchun tijorat banklarining turli xil kreditlaridan foydalanadi. Ushbu kreditlar keng omma uchun yo'naltirilishi hamda bank xizmatlari narxining oshib ketmasligini ta'minlash maqsadida hukumat, bank nazoratining bilvosita vositasi bo'lgan banklar o'rtasidagi kuchli raqobatni ta'minlashga erishadi.

Uchinchidan, hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Banklar hukumatning fiskal agenti bo'lish bilan birga, ularning o'zlari ham mamlakat budjetiga soliq to'lovlarini amalga oshirishi bilan hukumat tomonidan ularning yuqori daromadliligi qo'llab-quvvatlanadi va shu bilan birga, yuqori daromadlilik past darajadagi likvidlilikni keltirib chiqarib, o'z navbatida, yuqori risk tufayli mamlakatda tizimli riskni keltirib chiqaradi. Bu butun iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, banklar bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi, shu bilan birga, mamlakatdagi pul massasiga bilvosita ta'sir etib, inflatsiyani keltirib chiqaradi. Shuning uchun hukumat samarali bank nazoratini tashkil etishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, bank aksiyadorlari va ishchi-xodimlar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati tashkil etiladi [1, 34–35-b.].

Nazorat – qonunchilikni ta'minlash bo'yicha turli davlat organlarining faoliyat shaklidir. Bank nazorati esa bank sohasidagi nazorat bo'lib, uni tashkil etish milliy qonunchilik va xalqaro bank qo'mitalari tavsiyalariga asoslanadi. Bank nazoratining tashkiliy tuzilishi xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya kabi davlatlarda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish Markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladi. Germaniya, AQSh va Yaponiyada Markaziy banklar nazorat bo'yicha majburiyatlarini davlat organlariga taqsimlovchi aralash tizim amal qiladi. Kanada va Shveysariyada nazorat organlari markaziy banklardan ajratilgan. Bank faoliyatini nazorat qilishning zarurligi amalga oshiriladigan monetar siyosat asosini tashkil etish bilan birgalikda respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xos yo'li bilan ham bog'liq. Hozirgi kunda Markaziy bank kredit tashkilotlari, lombardlar va mikrokredit tashkilotlari ustidan nazorat olib boradi va ular faoliyatini tartibga soladi [2, 16–17-b.].

Davlat nazoratining tarkibiy qismi sifatida bank nazorati banklarning milliy va xalqaro bank qonunchiligiga rioya etishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda harakatlar majmuyini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi uch usulda banklarni nazorat qiladi: 1) tijorat bankini davlat ro'yxatiga olish chog'ida qonuniylik va maqsadga muvofiqlik jihatdan tekshiradi; 2) iqtisodiy-majburiy rezervlarni belgilaydi; 3) banklar faoliyati ustidan bevosita kundalik nazorat olib boradi. Markaziy bank tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlar kredit tizimi va pul-kredit munosabatlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning zarur huquqiy mexanizmlarini belgilaydi va ushbu mexanizmlarning

samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan yuridik shart-sharoitlar va kafolatlarni ta'minlaydi. Markaziy bank tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy aktlarda bank munosabati ishtirokchilarining xulq-atvor qoidalari, huquqlari, majburiyatlari, javobgarliklari mustahkamlab qo'yiladi va shu yo'l bilan bank munosabatlarining barqarorligi, adolatliligi, himoyalanganligi va kafolatlanganligi ta'minlanadi [3, 76-b.].

Bizning fikrimizcha, Markaziy bank banklar faoliyati ustidan regulyativ va prudensiya usullarda nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifasi banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilishdir. Albatta, Markaziy bank foyda olishga qaratilmagan, hukumatga bo'ysunmaydigan hamda moliya-bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tashkilot hisoblanadi.

Markaziy bank bank-moliya tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari va lombardlar faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi. Bank nazoratining asosiy turlari Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda banklarni nazorat etish va masofadan turib nazorat qilish hisoblanadi. Ushbu tartibda banklar, ularning filiallari hamda banklar bilan affillangan yuridik shaxslar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga doir asosiy qoidalar nazarda tutilgan. Inspeksiyalash banklarning real moliyaviy ahvolini aniqlash va bank faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiligini baholash maqsadida bevosita joylarda nazorat tartibida banklar hamda ularning filiallari faoliyatini tekshirishni nazarda tutuvchi bank nazorati uslubidir. Masofadan turib nazorat – tijorat banklari moliyaviy ahvolini har kuni monitoring qilish, ular tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlarni tahlil etishga asoslangan bank nazoratining uslubi bo'lib, uning maqsadi banklarning muammo-

larini dastlabki bosqichda aniqlashdan iborat [4, 549–550-b.].

Bizning fikrimizcha, bank nazorati bank tekshiruvlari orqali amalga oshiriladi va o'z navbatida, bank tekshiruvlari kameral va sayyor tekshiruvlarga bo'linadi.

Bank faoliyatini tartibga solish – Markaziy bankning tijorat banklar uchun bajarilishi shart bo'lgan aniq, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va texnik talablarni o'rnatish va bajarilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatidir. Banklar faoliyatini tartibga solish quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

1) majburiy zaxira talablari;

2) bank operatsiyalarini litsenziyalash;

3) iqtisodiy me'yorlar (kapitalning yertarliligi – adekvatligi, likvidlik ko'rsatkichi – bankning mijozlarga kredit berish majburiyatlarini bajarish qobiliyati, maksimal xavf);

4) bank nazorati. Bank nazorati Markaziy bankning bank faoliyati qonuniyligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir. Banklar faoliyati qonuniyligini nazorat qilish axborotlar olish, ularni tahlil qilish va ularni o'rnatilgan talablar bilan solishtirish, talablarga rioya qilinmagan holda, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishni o'z ichiga oladi. Bank nazorati bevosita va distansion nazorat turlariga bo'linadi.

Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarzu oluvchilar va kreditorlar manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi; shuningdek, ular tomonidan ichki nazorat qoidalari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring olib boradi hamda nazorat qiladi. Markaziy bank banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga oladi, shuningdek, bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenzi-

yalar beradi, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, garovxonalar faoliyati va qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi [5, 50-b.].

Markaziy bankning bank nazorati obyektini nafaqat banklar, balki nobank tashkilotlarini ham qamrab oladi. Chunki mazkur tashkilotlar ham bank xizmatlarini amalga oshiradi.

Banklarni tartibga solish va nazorat qilish jarayoniga faol ta'sir etuvchi xalqaro standartlarni joriy qiluvchi muhim tashkilot bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasidir. Xalqaro bank nazoratining quyidagi ikkita asosiy maqsadi mavjud: 1) kredit institutlari xususiy kapital miqdori va sifatiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqish; 2) bank xatarlarini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha talablar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida tashkil etilgan bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi dastlab katta o'nlik davlatlari (G10) Markaziy banklari rezidentlari tomonidan 1974-yilda Bazal shahrida tashkil etilgan. 2009-yildan esa barcha katta yigirmalik davlatlar (G20) uning ishtirokchilari hisoblanadi. Bazal qo'mitasi a'zolari bir yilda 4 marta yig'iladi. Qo'mitaning asosiy vazifasi bank sohasini doimiy boshqarish va nazorat qilish bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda qo'mitaga a'zo davlatlarning boshqaruv organlari uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqariladi. Ushbu tavsiyalarni joriy etish majburiy hisoblanmasa-da, lekin ko'p hollarda a'zo davlatlarning qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topadi [6, 80–81-b.].

Tijorat banklari faoliyatini baholashning CAMELS reyting tizimi 1978-yilda AQSh Moliya institutlari bo'yicha Federal xizmatining Ekspert kengashi tomonidan qabul qilingan va 1996-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Banklar faoliyati oltita ko'rsatkich asosida baholanadi. CAMELS (Capital adequacy – kapitalning yetarliligi, Asset quality – aktivlar sifati, Management – boshqaruv, Earnings – daro-

madlilik; Liquidity – likvidlilik; Sensitivity to risk – tavakkalchiliklarga nisbatan sezuvchanlik) – banklarni baholashning Amerika reyting tizimi bo'lib, 1978-yilda yaratilgan. Bu reyting tizimida eng yaxshi baho 1, eng yomoni esa 5 hisoblanadi [7, 45-b.].

Markaziy bankning "banklarning banki" sifatidagi funksiyasi, bizning fikrimizcha, asosan, quyidagi to'rt yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Barcha tijorat banklari o'z mablag'larining ma'lum qismini Markaziy bankdagi foizsiz hisob-raqamlarida minimal rezervlar sifatida saqlashga majbur. Xususan, Germaniya Federativ Respublikasida 1984-yildan boshlab, asosan, barcha tijorat banklari bilan bir qatorda uzoq muddatli qo'yilmalar bilan shug'ullanuvchi kredit institutlari va qurilish jamg'arma kassalari ham minimal rezervlarini Markaziy bankda saqlashga majbur bo'ldi. Markaziy bank rezervlar tizimi orqali bank tizimining to'lovga qobiyatligini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchidan, pul bozoridagi naqd pullarga bo'lgan talabni boshqarish orqali tijorat banklarining pul va kredit ekspansiyasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lyapti.

2. Markaziy bank barcha tijorat banklari va boshqa kredit institutlari uchun "so'nggi kreditor"dir. Tijorat banklari vaqtinchalik likvidli kredit oladi. Bu kreditlar, albatta, tijorat veksellari, davlatning qimmatbaho qog'ozlari yoki bankning boshqa qarz majburiyatlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish bo'yicha amalga oshiradigan doimiy operatsiyalari tufayli pul bozorining mo'tadil faoliyati ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida, tijorat banklariga mijozlarga qulay bo'lgan foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda Markaziy bank tijorat banklariga bergan kreditlari uchun belgilaydigan foiz stavkalarini o'zgartirish yo'li bilan kredit resurslariga bo'lgan talabni tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Markaziy bankning ushbu funksiyasi doirasidagi uchinchi yo'nalish, asosan, ikki holatda namoyon bo'ladi. Markaziy bank mamlakat hududida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar shakllari, ularni qo'llash tartibi va muddatini belgilab beradi. Xususan, "Nemis Federal banki to'g'risidagi Qonunda Bundesbankning "hisob-kitoblar tizimining banklar tomonidan mamlakatda va xorij bilan bo'lgan aloqalarda ijro etilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi" belgilab qo'yilgan.

4. Mamlakat bank tizimining mo'tadil faoliyat ko'rsatishida Markaziy bankning qanday usullar yordamida va qay darajada tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega. Markaziy bankning banklar faoliyatini nazorat qilishining eng asosiy sababi mamlakatda bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchni ta'minlashdir. Bu ishonch tijorat banklarining o'z mijozlari – yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi orqali ta'minlanadi [8, 228–229-b.].

Bizning fikrimizcha, Markaziy bankning eng muhim vazifasi tijorat banklari tomonidan kapital qo'yilma va rezervlarning hajmi, omonatlar va kapitalar bo'yicha xavf va tavakkalchilikning darajasi hamda kapitalning qaytara olish darajasi (likvidlik)ni nazorat qilishdir.

Tijorat banklarini nazorat qilish deganda, banklarning barqarorligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Davlatning pul-kredit siyosati, xususan, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish siyosati qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, Markaziy bank yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Huquqiy me'yorlar banklar uchun majburiy bo'lgan cheklolar va faoliyatning qat'iy chegaralarini belgilab beradi. Bu esa bank yomon, sifatsiz boshqarilganda, jiddiy zararlar yuzaga kelishining oldini oladi. Bank faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari mustahkam emasligi banklarning bankrot bo'lishi va umumiy nobarqarorlik yuzaga kelishiga olib keladi. Bank tizimini ishonchli tarzda himoya qi-

lishni ta'minlaydigan huquqiy tartibga solish me'yorlarini yaratish lozim. Masalan, iqtisodiy normativlar barcha tijorat banklari uchun bir xil tarzda qo'llanishi zarur. Aks holda, ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetga chiqib qoladi [9, 63–64-b.]. Tijorat banklarining iqtisodiy normativlari davlat moliyasi va omonatlar kafolati hisoblanadi.

Banklar faoliyati ustidan nazoratga xorijiy davlatlarda turli xil yondashiladi. Xususan, AQSh Federal zaxira tizimi AQShning Markaziy bankidir. U AQSh iqtisodiyotining samarali ishlashi va umuman olganda, jamoat manfaatlarini ta'minlash uchun beshta umumiy funksiyani bajaradi: AQSh iqtisodiyotida maksimal bandlik va barqaror narxlarini ta'minlash uchun mamlakatning pul-kredit siyosatini olib boradi; moliya tizimining barqarorligiga hissa qo'shadi hamda AQSh va chet elda faol monitoring va o'zaro hamkorlik orqali tizimli xavflarni minimallashtirish va ushlab turishga intiladi; alohida moliya institutlarining xavfsizligi va ishonchliligini oshiradi hamda ularning moliya tizimiga ta'sirini nazorat qiladi; bank sohasi va AQSh hukumatiga AQSh dollarida operatsiyalar va to'lovlarni osonlashtiradigan xizmatlar ko'rsatish orqali to'lov va hisob-kitob tizimlarining xavfsizligi va samaradorligini oshiradi; iste'molchilarga yo'naltirilgan nazorat va tajriba, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi rivojlanayotgan muammolar va tendensiyalarni tadqiq qilish hamda tahlil qilish, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish faoliyati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar va qoidalarni qo'llash orqali iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi [10, 2-b.].

Federal rezerv nazorat jarayonining asosiy maqsadi bank tashkilotlarining umumiy xavfsizligi va ishonchliligini baholash hamda rag'batlantirishdir. Ushbu baholash tashkilotning risklarni boshqarish tizimlari, moliyaviy holati va amaldagi qonun-qoidalarga muvofiqligini baholashni o'z ichiga oladi.

Eng yirik muassasalarni nazorat qilish muntazam gorizontal tekshiruvlarni o'z ichiga oladi – xavfsiz va ishonchli amaliyotni ta'minlash uchun o'xshash firmalar faoliyatini taqqoslash hamda muayyan firmalarning moliyaviy barqarorligi va xatarlarni boshqarish usullarini baholash uchun nazorat olib boriladi. Kichikroq muassasalarni nazorat qilish, asosan, joylardagi tekshiruvlar va monitoringdan iborat.

Federal rezerv AQShning eng yirik va eng murakkab xolding kompaniyalari hamda xorijiy bank tashkilotlariga kengaytirilgan prudensial standartlar qo'llaydi. Mazkur standartlar ushbu tartibga solinadigan subyektning xavf profili yoki tizimli ahamiyati oshgani sayin tobora kuchayib boradi. Standartlarga xavfga asoslangan kapital va Leveraj talablari, likvidlik talablari, stress testlari va hisob-kitob rejasi kiradi.

Federal rezerv moliya sanoatining ayrim segmentlarini xavfsiz biznes amaliyotidan foydalanishi hamda amaldagi barcha qonun-qoidalarga rioya qilishini ta'minlash uchun nazorat qilish va tartibga solish uchun javobgardir. Shtat banklari kamida 12 oyda bir marta tekshirilishi kerak. Aktivlari 3 million dollardan kam bo'lgan va ma'lum boshqaruv, kapital va boshqa mezonlarga javob beradigan banklar kamroq tekshiriladi (har 18 oyda bir marta). Muammoli holatda bo'lgan banklarda tez-tez tekshiruv olib boriladi. Federal zaxira tizimi shtat banklarni tekshirishni davlatning bank nazorati tekshiruvlari bilan muvofiqlashtiradi.

Federal rezerv moliya institutlarini nazorat qilish uchun ikki tomonlama yondashuvni qo'llaydi:

1. Mikroprudensial yondashuv alohida muassasalarning xavfsizligi va ishonchligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, Federal zaxira tizimi tomonidan tartibga solinadigan alohida tashkilotlarning tuzilishi, faoliyati va muvofiqligini chuqur tekshirishni o'z ichiga oladi.

2. Makroprudensial yondashuv umuman moliya tizimining ishonchligi va barqaror-

ligiga qaratilgan bo'lib, bir muassasa yoki muassasalar guruhining harakatlari boshqa institutlar va umuman AQShning iqtisodiy va moliyaviy tizimiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganadi.

Xolding kompaniyalarining konsolidatsiyalangan nazorati bosh kompaniya va uning sho'ba korxonalarini qamrab oladi hamda Federal rezerv tizimiga tashkilotning tuzilishi, faoliyati, resurslari va xatarlarini tushunish, shuningdek, moliyaviy, boshqaruv, operatsion yoki boshqa kamchiliklarni xolding kompaniyasining sho'ba depozitar muassasi uchun xavf tug'dirmasdan oldin bartaraf etishga imkon beradi.

Moliya institutlarini nazorat qilishda Federal rezerv eng katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan nazorat qilinadigan moliya institutining biznes faoliyatiga qaratilgan tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Ushbu yondashuvning natijasi yuqori xavf tug'diradigan firmalarning samarali va qat'iy nazoratini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvni amalga oshirish uchun Federal zaxira tizimi: 1) nazorat qilinadigan muassasa uchun eng katta xavf va yuzaga keladigan tahdidlarni aniqlaydi; 2) muassasa rahbariyatining ushbu xavflarni aniqlash, o'lchash va nazorat qilish qobiliyatini baholaydi.

Banklar va xolding kompaniyalari ustidan doimiy tashqi nazoratning bir qismi sifatida Federal rezerv (1) moliyaviy holati yomon yoki yomonlashgan institutlarni faol ravishda aniqlash va (2) bank sohasida rivojlanayotgan salbiy tendensiyalarni belgilash uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanadi.

Yirik jahon moliya institutlarining xalqaro operatsiyalari o'sishi bilan Federal zaxira tizimi AQSh va xorijiy mamlakatlarning boshqa bank nazorati organlari "kuzatuv kengashlari" orqali hamkorlik mexanizmlarini kengaytirdi va rasmiylashtirdi. Kuzatuv kengashlari tegishli nazorat organlarining ko'p tomonlama ishchi guruhlari bo'lib, ular xalqaro bank guruhi umumiy operatsiyalarining sa-

marali, uzluksiz konsolidatsiyalangan nazoratni ta'minlash uchun tuziladi [11, 2-b.].

Kanada. OSFI (Office of the Superintendent of Financial Institutions) tashkiloti banklar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Kanada banki OSFIdan belgilangan maqsadda har qanday moliya institutini qonun doirasida tekshirishni talab qilishi mumkin [12, 3-b.].

OSFI quyidagi vakolatlarga ega:

1) moliyaviy institutlarning moliyaviy ahvoli yaxshi yoki yomonligini aniqlash uchun ularni boshqarish to'g'risidagi qonun hujjatlari va ushbu qonun bo'yicha nazorat talablariga rioya qilinishini nazorat qilish;

2) moliya institutlarini o'zlarining yaxlitligi yoki xavfsizligiga tahdidlar, shu jumladan, chet el aralashuvidan himoya qilish uchun yetarli siyosat va protseduralarga ega ekanligini aniqlash uchun nazorat qilish;

3) moliya muassasasi rahbariyati va direktorlar kengashi, agar muassasa yaxshi moliyaviy ahvolda bo'lmasa yoki unga rioya qilmasa, zudlik bilan maslahat berish, vaziyatni kechiktirmasdan hal qilish uchun zarur bo'lgan tuzatish choralari yoki bir qator choratadbirlarni ko'rish to'g'risida ko'rsatma berish;

4) moliya instituti rahbariyati va direktorlar kengashiga, agar muassasa o'zining yaxlitligi yoki xavfsizligiga tahdidlardan o'zini himoya qilish uchun yetarli siyosat va protseduralarga ega bo'lmasa va bunday holda qabul qilish yoki qabul qilishni talab qilish, vaziyatni kechiktirmasdan hal qilish uchun zarur tuzatish choralari yoki bir qator choratadbirlarni belgilash;

5) moliya institutlari rahbariyati va direktorlar kengashlari tomonidan xatarlarni boshqarish hamda boshqarish uchun ishlab chiqilgan siyosat va protseduralarni qabul qilishga ko'maklashish;

6) moliyaviy institutlarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tizim miqyosidagi yoki tarmoq voqealari yoki muammolarini kuzatish va baholash [13, 4-b.].

Nazorat va tartibga solish: OSFI moliya institutlari va pensiya rejalarining amaldagi qonunlar, qoidalar va ehtiyotkorlik standartlariga muvofiq ishlashini ta'minlaydi. Bu ularning moliyaviy holati va xatarlarni boshqarish amaliyotini muntazam ravishda baholaydi.

Depozitlarni sug'urtalash: OSFI Kanada depozitlarini sug'urtalash korporatsiyasi orqali bank depozitlarini kafolatlaydi. Bu omonatchilar ma'lum bir chegaraga qadar bank tugatilganda, himoyalanganligini ta'minlaydi.

Pensiya rejasini nazorat qilish: OSFI reja ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilish uchun xususiy pensiya rejalarini moliyalashtirish va boshqarishni tekshiradi hamda nazorat qiladi. U pensiya rejalarining minimal moliyalashtirish talablariga javob berishi hamda qonunlar va nazorat talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Xatarlarni boshqarish: OSFI moliya institutlarida xatarlarni boshqarish amaliyotini tarqatishga yordam beradi. U moliya tizimining barqarorligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tizim yoki sanoat miqyosidagi muammolarni tahlil qiladi va baholaydi.

Singapur. Markaziy bank (Monetary Authority of Singapore) MAS deb atalib, uning quyidagi asosiy vazifalari mavjud: Singapur Markaziy banki sifatida faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan, pul-kredit siyosatini amalga oshirish, banknotalarni chiqarish, to'lov tizimlarini nazorat qilish hamda Singapur hukumatiga bankir va moliyaviy agent sifatida xizmat ko'rsatish, moliyaviy xizmatlar va moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish, Singapurning valyuta zaxiralarini boshqarish, Singapurni xalqaro moliya markazi sifatida rivojlantirish.

MAS vaqti-vaqti bilan Singapur banklari yoki ular tomonidan to'lanadigan foiz stavkalari, Singapur banklari tomonidan olinadigan diskont stavkalari yoki Singapur banklariga to'lanadigan to'lovlar va boshqa to'lovlarni belgilashi hamda e'lon qilishi mumkin. MAS

Singapur banklari tomonidan berilgan kreditlar, avanslar yoki investitsiyalarga nisbatan banklarga quyidagilar bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin:

1) kreditlar, avanslar yoki investitsiyalar berilishi yoki berilmasligi mumkin bo'lgan maqsadlar;

2) maksimal to'lov muddatlari yoki kreditlar va avanslar bo'lsa, talab qilinishi kerak bo'lgan garov turi va minimal miqdori, akkreditivlar bo'lsa, minimal yoki marja depoziti;

3) kreditlar, avanslar yoki investitsiyalarning har qanday toifasi yoki ushbu kreditlar, avanslar yoki investitsiyalar bo'yicha qarzning umumiy miqdori uchun cheklovlar.

MAS maxfiylik sharoitida Singapurdagi har bir bank va Singapurda ro'yxatdan o'tgan bank tomonidan ochilgan Singapur tashqarisidagi har qanday filial, agentlik yoki vakolatxonaning kitoblarini tekshirishi mumkin.

MAS istalgan vaqtda Singapurdagi istalgan bank kitoblarining maxfiyligi bo'yicha tekshiruv o'tkazishi mumkin.

To'lovga qodir bo'lmagan yoki o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan yoki to'lovlarni to'xtatib qo'ygan yoki to'xtatib qo'ymoqchi bo'lgan har qanday tegishli moliya muassasasi ushbu fakt to'g'risida darhol MASni xabardor qilishi kerak. Har qanday tegishli moliya muassasasi huquqbuzarlik uchun aybdorligi aniqlanganda, 100 ming dollardan oshmaydigan jarima va davom etayotgan huquqbuzarlik holatida har bir kun yoki kunning bir qismi uchun 10 ming dollardan oshmaydigan jarimaga tortiladi [14, 3-b.].

Janubiy Koreya. Janubiy Koreya banki (Bank of Korea) Markaziy bank vazifasini bajaradi. Uning asosiy organi Pul-kredit kengashi bo'lib, quyidagi vakolatlarga ega:

1) Koreya banki banknotalarini chiqarish bilan bog'liq asosiy masalalar;

2) moliya institutlari tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan minimal zaxira talablari stavkalari;

3) Koreya banki tomonidan moliya institutlari uchun qayta hisoblash stavkasi, kredit biznesining boshqa standartlari va foiz stavkasi;

4) Koreya banki tomonidan moliya institutlariga berilgan favqulodda kreditlar bilan bog'liq asosiy masalalar;

5) Koreya banki kreditni rad etishi mumkin bo'lgan moliya institutlari ro'yxati;

6) Koreya bankining milliy obligatsiyalari yoki davlat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalarini ochiq bozorlarda sotish va sotib olish bilan bog'liq asosiy masalalar;

7) Koreya bankining valyutani barqarorlashtirish bo'yicha obligatsiyalarni chiqarish, sotish, qayta sotib olish yoki to'lash bilan bog'liq asosiy masalalar va boshqalar;

8) valyuta barqarorligini ta'minlash bo'yicha Koreya banki hisobvaraqlarini tashkil etish va faoliyat yuritish bilan bog'liq asosiy masalalar;

9) ekstremal deflyatsiya davrida moliyaviy institut bo'lmagan tijorat korxonalarini kreditlashning asosiy masalalari;

10) to'lov tizimining ishlashi va uni boshqarishning asosiy masalalari;

11) to'lov va hisob-kitob tizimida ishlaydigan moliya institutlari va muassasalariga materiallar taqdim etish to'g'risida so'rov: agar bu pul-kredit siyosatini o'rnatish hamda to'lov va hisob-kitob tizimining ishlashini osonlashtirish uchun zarur bo'lganda, cheklanishi kerak bo'lsa;

12) moliyaviy nazorat xizmatiga moliya institutlarini tekshirish va birgalikda tekshirish uchun so'rov;

13) moliya institutlari tomonidan har xil turdagi depozitlar yoki boshqa to'lovlar bo'yicha eng yuqori foiz stavkalari;

14) kredit biznesining eng yuqori foiz stavkasi, masalan, har xil turdagi kreditlar yoki moliya institutlarining boshqa to'lovlari;

15) moliya institutlari va qimmatli qog'ozlar turlari bo'yicha eng uzoq muddatli kreditlarni cheklash;

16) belgilangan davrda moliya institutlari tomonidan milliy iqtisodiyotga zudlik bilan zarur bo'lgan kreditlar va investitsiyalar uchun yuqori chegara yoki sanoat chegarasidagi cheklovlar, masalan, giperinflyatsiya;

17) milliy iqtisodiyotga shoshilinch muhtoj bo'lgan moliya institutlari tomonidan kreditni oldindan tasdiqlash, masalan, giperinflyatsiya [15, 2-b.].

Janubiy Koreya moliyaviy nazorat xizmati (FSS) moliya institutlarini nazorat qiluvchi integratsiyalashgan moliyaviy regulyator hisoblanadi.

FSS huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda moliyaviy institutlarni tekshirishni amalga oshiradi. FSS ma'lumotlariga ko'ra, regulyator moliya institutlarini nazorat qiladi, litsenziya arizalarini ko'rib chiqadi, tashqi audit tizimining to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun buxgalteriya hisobini nazorat qiladi va maslahat beradi hamda iste'molchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, u shaffoflikni oshiradi, iste'molchilarning huquqlarini himoya qiladi va adolatsiz savdo amaliyotining oldini olish uchun ularga moliyaviy ta'lim beradi.

FSSning maqsadi ishonchli bozorlar va mijozlar yaratish, nazoratni kuchaytirish, moliyaviy va iqtisodiy xavflarning oldini olish, kichik va o'rta biznes va kam daromadli odamlarga moliyaviy yordam ko'rsatishdir.

FSS moliyaviy xizmatlar komissiyasi yoki qimmatli qog'ozlar va fyucherslar komissiyasining rahbarligi va nazorati ostida moliya institutlarini tekshirish va nazorat qilish uchun tashkil etiladi.

Moliyaviy xizmatlar komissiyasiga tegishli ishlar quyidagilar:

1) moliya siyosati va tizimlariga oid masalalar;

2) moliya institutlarini nazorat qilish, tekshirish va sanksiyalarga oid masalalar;

3) moliya institutlarini tashkil etish, birlashtirish, konvertatsiya qilish, biznesni o'tkazish va o'z zimmasiga olish hamda biz-

nesni boshqarish uchun avtorizatsiya va ruxsat berish masalalari;

4) kapital bozorlarini boshqarish va nazorat qilish masalalari;

5) moliyaviy iste'molchilarni himoya qilish va ularga kompensatsiya berish kabi zararni davolash vositalariga oid masalalar;

6) moliya markazini yaratish va rivojlantirish masalalari;

7) 1–6-bandlarda ko'rsatilgan masalalar bilan bog'liq nizomlar va qoidalar o'rnatish, o'zgartirish va bekor qilish masalalari;

8) ikki tomon va ko'p partiyalar o'rtasidagi muzokaralar hamda moliya va valyuta biznesini boshqarish institutlarining mustahkamligini nazorat qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikka oid masalalar;

9) valyuta biznesini boshqarish institutlarining mustahkamligini nazorat qilish masalalari [16, 2-b.].

Tadqiqot najjalari tahlili

Bank huquqbuzarligi – bank munosabatlari ishtirokchilari tomonidan bank munosabatlarini tartibga soladigan huquq me'yorlari talablarini buzishdir. Bank huquqbuzarliklari harakat va harakatsizlik shaklida bo'lishi mumkin. Jazo – qonunchilikda aniqlangan va huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun qonunda o'rnatilgan tartibda qo'llanadigan majburlash choralidir [17, 87–88-b.].

Milliy qonunchiligimizga muvofiq, Markaziy bank banklar faoliyati va bank qonunchiligining to'g'ri qo'llanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Markaziy bank banklar tomonidan amalga oshiriladigan bank operatsiyalarini tekshirishi yoki bu ishni auditorlik tashkilotlariga topshirishi mumkin. Markaziy bank nazoratni amalga oshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar beradi va bu ko'rsatmalar banklar uchun bajarilishi majburiydir. Agar Markaziy bank ko'rsatmalari bajarilmasa, iqtisodiy normativlarning buzilishi sababli banklar yoki mijozlarga zarar yetganligi aniqlansa, hisobotlar taqdim etilmasa yoki soxta hisobotlar taqdim etilgan

bo'lsa va boshqa hollarda Markaziy bank aybdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan chora-sanksiyalar qo'llaydi [18, 269-b.].

Banklar va ularning filiallari tomonidan iqtisodiy normativlar buzilgan holda, Markaziy bank banklarning ustav kapitali eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirib olishi yoki olti oygacha bo'lgan muddatga ayrim operatsiyalarni o'tkazishni cheklab qo'yishi mumkin [19, 326-b.].

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, banklar mijozlari huquqlarini himoya qilish, to'lov intizomini kuchaytirish maqsadida "Markaziy bank tomonidan bank qonunchiligi va bank faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni buzganliklari uchun tijorat banklariga nisbatan qo'llanadigan chora va jazolar to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilgan. Markaziy bank mazkur nizomga muvofiq, amaldagi qonunchilik, bank operatsiyalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va qoidalarni buzishga yo'l qo'ygan banklarga nisbatan jarima jazolarini qo'llashi mumkin. Undirilgan jarimalar summasi Markaziy bankning 1999-yil 25-dekabrda 289-sonli Buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga muvofiq, "Boshqa foizsiz daromadlar" balans hisobvarag'iga kirim qilinadi [20, 235-b.].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq, banklar, banklarning bevosita hamda bilvosita aksiyadorlari, shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdorlari, kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolari, shuningdek, banklarning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo'llashga haqli.

Nobank kredit tashkilotlari qonunchilik talablari, shu jumladan, belgilangan prudensial normativlarni buzgan yoki xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirish uchun belgilangan talablar va shart-

lar bajarilganligi to'g'risida Markaziy bankka yolg'on yoki noto'g'ri axborot bergan taqdirda, Markaziy bank:

- qoidabuzarga o'z faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishga;

- o'z kapitalining besh foizigacha miqdorda jarima undirishga;

- ayrim operatsiyalarni o'tkazishni uch oygacha bo'lgan muddatga cheklashga;

- nobank kredit tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlarni mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestri yoki ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari reyestri yoxud lombardlar reyestridan chiqarib tashlashga;

- xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni to'xtatib turishga yoki tugatishga haqli.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik kredit tashkilotlari, to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda, Markaziy bank ularga nisbatan qonunchilikka muvofiq, choralar va sanksiyalar qo'llashga haqli. Kredit tashkilotlari, to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari hamda kredit byurolariga choralar va sanksiyalar qo'llash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Markaziy bank ayni bir qoidabuzarlik bo'yicha bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket bir nechta choralar va (yoki) sanksiyalar qo'llashga haqli. O'zbekistonda banklarga nisbatan bank qonunchiligini buzganligi uchun Markaziy bank tomonidan bir qator chora va sanksiyalar qo'llanadi. Markaziy bank qonunda ko'rsatilgan qoidabuzarliklar uchun javobgar bo'lgan bank, uning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolari, shuning-

dek, bankning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llashga haqli.

Qoidabuzarliklar qo'pol, jiddiy va juz'iy qoidabuzarliklarga bo'linadi. Choralar va sanksiyalarni qo'llash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Choralar va sanksiyalar qo'llanganda, Markaziy bank quyidagilarni hisobga oladi: tavakkalchilikning darajasi, qoidabuzarliklarning xususiyati, miqyosi va oqibatlari; qoidabuzarliklarning tizimlilik va davomiyligi; yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarning moliyaviy holatga ta'siri; qo'llanadigan choralar va (yoki) sanksiyalar natijasida vaziyatni o'zgartirish imkoniyati; aniqlangan qoidabuzarliklar va (yoki) tavakkalchiliklarning yuzaga kelishiga olib kelgan sabablar; ilgari qo'llangan choralar va sanksiyalarning samaradorligi (natijadorligi); bank, bevosita va bilvosita aksiyador tomonidan, shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdor, kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zosi, bankning muhim ahamiyatga ega xodimi tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan mustaqil choralar ko'rilishi.

Qo'pol qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi: litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning qalbaki hujjatlar asosida olinganligi; sodir etilishi uchun oldindan Markaziy bankning ruxsatini olish talab etiladigan harakatlarning ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olmay turib amalga oshirilganligi; bank yoki banklar guruhi faoliyatidagi qo'pol qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi Markaziy bank ko'rsatmalarining belgilangan muddatda bajarilmaganligi; foydani taqsimlashda ushbu qonun talablarining bajarilmaganligi; bank ustav kapitali miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan belgilangan talabga muvofiq emasligi; bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan ko'proq muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yo'l qo'yiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi; bank

aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yetarlicha zaxiraning mavjud emasligi; litsenziyada nazarda tutilmagan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganligi; ushbu Qonun bilan taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat amalga oshirilganligi; bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan ancha qulay shartlar asosida bitimlar tuzilganligi; buxgalteriya hisobining hisobotga oid ma'lumotlar buzilishiga olib keladigan va bank yoki banklar guruhining haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettirish imkonini bermaydigan qoidabuzarliklar bilan yuritilganligi; auditorlik tashkilotiga bankning auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moliyaviy hisobotlar va boshqa moliyaviy axborotlar taqdim etilmaganligi; Markaziy bank tomonidan nazorat vazifalari bajarilishiga to'sqinlik qilinganligi; bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi; Markaziy bankka axborotni taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki bank yoki banklar guruhining to'lov layoqati yoxud likvidligini baholashni o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi buzilgan yoki to'liq bo'lmagan axborot taqdim etilganligi; oxirgi benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi axborotning oshkor etilmaganligi; boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, ichki nazorat, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimida bankning to'lov layoqatiga tahdid soluvchi yoki zarar ko'rilishiga olib keluvchi nuqsonlarning mavjudligi; tizimli ahamiyatga ega banklar tomonidan Markaziy bankning bufer kapitaliga oid talablariga rioya etilmaganligi; bank tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki filiallar ochishga doir cheklovlar va (yoki) taqiqqa rioya etilmaganligi; bank tomonidan bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi taqdim etilmaganligi; bankning kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari, shuningdek, muhim ahamiyatga ega xodimlarining qonun talablariga muvofiq emasligi; bank siri to'g'risidagi qonunchilik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va

ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilganligi; jiddiy qoidabuzarlik uchun Markaziy bank tomonidan jarima qo'llangandan keyin besh yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shunday qoidabuzarlik.

Jiddiy qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi: prudensial normativlarga rioya etilmaganlik; bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yo'l qo'yiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi; banklar tomonidan to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmaganligi; moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan qarz oluvchilarning kreditlari restrukturizatsiya qilinganligi; Markaziy bankning aniqlangan qoidabuzarliklar to'g'risida bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini xabardor qilishga doir talabi bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a'zolari tomonidan bajarilmaganligi; bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a'zolari yoxud muhim ahamiyatga ega xodimlari tomonidan korporativ boshqaruv va mukofotlash siyosatlari bajarilmaganligi; buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish qoidalari buzilganligi; xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) Markaziy bankni belgilangan tartibda xabardor qilmay amalga oshirilganligi yoki tugatilganligi; juz'iy qoidabuzarlik uchun Markaziy bank tomonidan jarima qo'llangandan keyin uch yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shunday qoidabuzarliklar.

Juz'iy qoidabuzarliklar jumlasiga mazkur qonunga muvofiq, qo'pol yoki jiddiy qoidabuzarlik hisoblanmaydigan, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga javob bermaydigan nomuvofiqliklar kiradi.

Qo'pol qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank: banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzgan holda, amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar-

dan olingan daromadlar miqdorini aniqlash imkoni bo'lsa, bankdan ushbu daromadlarning ikki baravari miqdoridan yoki bank tomonidan o'tgan moliya yili davomida olingan sof foydaning besh foizi yoki bank jami kapitalining bir foizi miqdoridan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; ko'rsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qo'llash; litsenziyani chaqirib olish; bank kuzatuv kengashi, boshqaruvining a'zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qo'llanayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning yuz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; qoidabuzarliklar, qoidabuzarlarga nisbatan qo'llangan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishga haqli.

Jiddiy qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank: banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzgan holda, amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar miqdorini aniqlash imkoni bo'lsa, bankdan ushbu daromadlarning bir yarim baravari miqdoridan yoki bank tomonidan o'tgan moliya yili davomida olingan sof foydaning 2 foizi yoki bank jami kapitalining 0,5 foizi miqdoridan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; ko'rsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qo'llash; bank kuzatuv kengashi, boshqaruvining a'zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qo'llanayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning yetmish besh foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; qoidabuzarliklar, qoidabuzarlarga nisbatan qo'llangan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishga haqli. Banklar tomonidan to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan hollarda Markaziy bank bankning aybi bilan amalga oshirilmay qolgan summaga teng miqdorda jarima solishga haqli.

Juz'iy qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank: banklar va bank faoli-

yati to'g'risidagi qonunchilikni buzgan holda amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar miqdorini aniqlash imkoni bo'lsa, bankdan ushbu daromadlar yoki bank tomonidan o'tgan moliya yili davomida olingan sof foydaning bir foizi yoki bank jami kapitalining 0,1 foizi miqdoridan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; ko'rsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qo'llash; bank kuzatuv kengashi, boshqaruvining a'zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qo'llanayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima undirish; qoidabuzarga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llanishi to'g'risida yozma ogohlantirish yuborishga haqli.

Kanada. Bank qonunchiligini buzganlik uchun maksimal jazo quyidagicha: agar jismoniy shaxs tomonidan buzilgan taqdirda, kichik qoidabuzarlik uchun 10 ming AQSh dollari, jiddiy qoidabuzarlik uchun 50 ming AQSh dollari va o'ta jiddiy qoidabuzarlik uchun 100 ming AQSh dollari; yuridik shaxs tomonidan buzilgan taqdirda, kichik qoidabuzarlik uchun 25 ming AQSh dollari, jiddiy qoidabuzarlik uchun 100 ming AQSh dollari va o'ta jiddiy qoidabuzarlik uchun 500 ming AQSh dollari.

Har bir holatda jarima miqdori hisobga olingan holda belgilanadi: a) qoidabuzarlik sodir etgan shaxsning niyati yoki beparvoligi darajasi; b) buzilishi oqibatida zarar; d) buzilishdan oldin besh yillik davr mobaynida moliya institutlari to'g'risidagi qonunga binoan, har qanday oldingi buzilish yoki sudlanlik bilan bog'liq holda qoidabuzarlik sodir etgan shaxsning tarixi; e) qoidalar bilan belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa mezonlar.

Bank menejeri, menejer o'rinbosari yoki direktori lavozimini egallab turgan shaxs tomonidan bank qonunchiligi buzilsa, 100 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan jarima yoki ko'pi bilan olti oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanadi.

Ushbu qonunga muvofiq, direktor, xodim yoki auditor tomonidan taqdim etilgan hisobotlar soxtalashtirilgan bo'lsa, 100 ming AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan jarima yoki olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan [21, 3-b.].

Janubiy Koreya. Bank to'g'risidagi qonun buzilgan taqdirda, FSC buzilishning og'irligiga muvofiq, tegishli choralar ko'radi, masalan: ma'muriy sanksiyalar (bank faoliyatini tugatish, bank operatsiyalarining to'liq yoki qisman to'xtatilishi, tuzatish to'g'risida ko'rsatma, direktorlar, ofitserlar va xodimlarga nisbatan intizomiy choralarni talab qilish yoki tavsiya etish, vazifalardan chetlashtirish va boshqalar); jarimalar; ma'muriy jarima solish; jinoiy ish qo'zg'atish. Ushbu sanksiyalardan tashqari, FSC maslahat, ko'rsatma va tavsiyalar kabi majburiy bo'lmagan yoki vakolatli bo'lmagan nazorat choralari ham qo'llaydi.

Bank litsenziyasi bekor qilingan taqdirda, bank tugatiladi. Bank qonunchiligida bank litsenziyasi bekor qilinishi mumkin, agar: bank soxta yoki noqonuniy yo'llar bilan bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan; bank litsenziyaning sharti yoki amal qilish muddatini buzganda; bank o'z faoliyatini to'xtatib turish davrida o'z faoliyatini davom ettirgan; bank bank qonunchiligini buzganlik uchun tuzatishlar kiritish ko'rsatmasini bajarmagan; bank bank aktiga muvofiq chiqarilgan har qanday buyruqni buzganligi sababli investorlar va omonatchilarning manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish ehtimoli katta bo'lganda.

Shunga ko'ra, agar bank tugatilgan bo'lsa, sud manfaatdor tomon yoki FSC iltimosiga binoan yoki sud vakolati bilan ishonchli shaxsni tayinlaydi. Vasiy bank obligatsiyalaridan mablag'lar yig'adi; sudga tayinlanganligi to'g'risida xabar berilgandan keyin bank aktivlarini tekshiradi; kreditorlar oldidagi qarzlarni to'laydi (omonatchilar omonatchilarni himoya qilish to'g'risidagi qonun bilan hi-

moyalangan) va aktivlarni begonalashtirgandan so'ng qolgan aktivlarni huquq egalari (aksiyadorlar) o'rtasida taqsimlaydi. Xuddi shu narsa bankrotlik natijasida bankrotlik holatida ham amal qiladi [22, 11-b.].

Masalan, agar moliya instituti tomonidan yarim oy davomida saqlanadigan zaxira talablari minimal zaxira talablariga javob bermasa, moliya instituti Koreya bankiga bunday yarim oy davomida o'rtacha kamomadning 1/100 qismiga teng jazosini to'laydi.

Agar minimal zaxira talablarining yetishmasligi ikki yarim oydan ortiq davom etsa, valyuta kengashi moliya institutiga yangi kreditlar va investitsiyalar berish yoki aksiyadorlarga minimal zaxira talablariga javob berguncha kamida bir oy muddatga dividendlar to'lashni taqiqlashi mumkin [15, 3-b.].

AQSh. Federal zaxira tizimi quyidagi tashkilotlarni nazorat qiladi va ularga qarshi rasmiy ijro choralari ko'rish uchun qonuniy vakolatga ega: shtatlarning a'zo banklari; bank xolding kompaniyalari; jamg'arma va kredit xolding kompaniyalari; bank xolding kompaniyalari va jamg'arma-kredit xolding kompaniyalarining bankdan tashqari filiallari; Edge Act va kelishuv korporatsiyalari; AQShda faoliyat yuritayotgan xorijiy bank tashkilotlarining filiallari va vakolatxonalari hamda ularning asosiy banklari; Moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish Kengashi (FSOC) tomonidan federal rezerv tomonidan nazorat qilinadigan tizimli ahamiyatga ega bank bo'lmagan moliyaviy kompaniyalar; yuqorida aytib o'tilgan banklar, kompaniyalar va tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan mansabdor shaxslar, direktorlar, xodimlar va jismoniy yoki yuridik shaxslarning boshqa toifalari ("muassasalarga aloqador tomonlar" deb nomlanadi).

Qoida tariqasida, Federal zaxira tizimi yuqorida aytib o'tilgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunlar, qoidalar yoki qoidalarni buzganlik, xavfli yoki asossiz amaliyotlar, ishonchli vazifalar va yakuniy buyruqlarni buzganlik uchun rasmiy ijro

cholarini ko'radi. Rasmiy ijro harakatlari-ga to'xtatish va to'xtatib turish to'g'risidagi buyruqlar, yozma bitimlar, zudlik bilan tuzatish choralari bo'yicha ko'rsatmalar, FDIC sug'urtasini tugatish, affillangan shaxslarni olib tashlash va taqiqlash to'g'risidagi buyruqlar hamda fuqarolik pul jazolari to'g'risidagi buyruqlar kiradi [23, 2-b.].

Shveysariya. Kerakli miqdordagi minimal zaxiraga ega bo'lmagan har qanday bank Milliy bankka talab qilinadigan minimal zaxira koeffitsiyenti bajarilmagan davr uchun kamomad bo'yicha foizlar to'lashi shart. Milliy bank tegishli foiz stavkasini belgilaydi. Bu o'sha davrdagi banklararo kreditlar bo'yicha pul bozori stavkasidan besh foizdan yuqori bo'lishi mumkin.

Agar Milliy bank moliyaviy bozorning tizimli muhim infratuzilmasi maxsus talablariga javob bermasligini sezsa, bu haqda FINMA, shuningdek, boshqa vakolatli Shveysariya yoki xorijiy nazorat organlarini xabardor qilishi kerak [24, 3-b.].

Himoya choralari FINMA tomonidan mustaqil ravishda yoki bankni qayta tashkil etish yoki tugatish tartib-qoidalari bilan bog'liq holda belgilanishi mumkin. Bank qonuni-ning 1-moddasi 26-bandida quyidagi himoya choralari ko'rsatilgan: bank korporativ organlariga ko'rsatmalar; surishtiruv xodimini tayinlash; yuridik shaxslarni bank vakili vakolatidan mahrum qilish yoki yuridik shaxslarni lavozimidan chetlashtirish; bank auditorlari yoki korporativ auditorlarni lavozimidan chetlashtirish; bankning tijorat faoliyatini cheklash; to'lovlarni amalga oshirish yoki olish yoxud qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlash; bankning yopilishi va to'xtatib turish uchun buyurtma (Stundung) yoki to'lashni keyinga qoldirish (Fälligkeitsaufschub), garov bilan ta'minlangan ipoteka obligatsiyalari bo'yicha Markaziy muassasalariga qarzlari bundan mustasno (Pfandbriefzentralen).

Yuqoridagi chora-tadbirlar ro'yxati to'liq emas va FINMA tegishli deb hisoblagan bosh-

qa choralarni ham ko'rishini mumkin. Shveysariya nuqtayi nazaridan, FINMA tomonidan belgilangan har qanday himoya choralari bankning Shveysariyadan tashqarida joylashgan xorijiy filialida joylashgan aktivlariga nisbatan ham belgilanishi mumkin [25, 3-b.].

Xulosalar

Bank nazorati va uning shakllari bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: bank nazorati – moliyaviy nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, vakolatli organ tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda bank tizimi barqarorligi va tartibliligini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatiga ta'sir etadigan yuridik va iqtisodiy usul hamda vositalar majmuyi hisoblanadi.

Bank nazoratining quyidagi shakllari mavjud: banklar faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash; banklar faoliyatini tekshirish; banklar faoliyatini masofaviy tekshirish; bank faoliyatini monitoring qilish; bank faoliyatining ayrim operatsiyalariga ruxsat berish; bank faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun xabardor qilish tartibini belgilash; banklarning alohida toifadagi shaxslarini tekshirish; bank faoliyatiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish; iqtisodiy normativlarni (kapital, rezerv, risk, likvidlik) belgilash; banklar amal qiladigan minimal va maksimal talablarni belgilash; bank va nobank tashkilotlar tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishlar uchun chora va sanksiyalar qo'llash.

Demak, har qanday davlatda bank instituti o'zi yolg'iz mavjud bo'lmasdan, balki banklar faoliyatini nazorat qiladigan markaziy organ sifatida markaziy banklarning mavjud bo'lishi majburiy hisoblanadi. Chunki davlat banklarni faqat davlat organiga tenglashtirilgan institut – Markaziy bank orqali boshqarishga harakat qiladi.

Bank huquqbuzarligi va choralar (sanksiya) bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bank huquqbuzarligi – bank qonunchiligida belgilangan qoidalarni buzish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan cho-

ralar (sanksiya) – bank va nobank tashkilotlarning bank qonunchiligida belgilangan qoidalarni buzganligi sababli qo'llanadigan majburlov (ta'sir) vositalari.

2. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida Markaziy bankning huquqiy maqomi belgilangan. Unga ko'ra, Markaziy bank yuridik shaxs bo'lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o'z xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi. Markaziy bank o'z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi deb belgilangan. Ushbu moddada Markaziy bankning yuridik shaxs, davlatning mutlaq mulki va iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa ekanligi belgilangan, ammo Markaziy bankning huquqiy maqomi, ya'ni uning tashkiliy-huquqiy shakli aniq ko'rsatilmagan. Masalan, Markaziy bank davlat organi ekanligi yoki mustaqil yuridik shaxs sifatida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilmagan. Ushbu holatda bank qonunchiligi bo'yicha nizo kelib chiqqanda, ya'ni Markaziy bank banklarga nisbatan chora yoki sanksiya qo'llaganda, banklar Markaziy bank ustidan sud tartibida shikoyat qilganda, ishlarining sudlarga taalluqligi masalasida tushunmovchilik kelib chiqadi. Ushbu turdagi ishlar ma'muriy yoki iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilganda, muammo yuzaga keladi. Shu sababli ushbu moddada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomiga aniqlik kiritish lozim.

3. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunni quyidagi mazmundagi 67²-modda bilan to'ldirish taklif etildi.

"67²-modda. Makroprudensial siyosat

Makroprudensial siyosat – moliya tizimining tizimli risklarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyidir. Moliya tizimining tizimli risklari deganda, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning buzilishi, butun moliya tizimi yoki uning bir qismining moli-

yaviy holati yomonlashishiga olib keladigan yoki uning barqaror ishlashiga putur yetkazadigan xatarlar tushuniladi. Moliyaviy tizimning tizimli risklariga tizimli ahamiyatga ega moliyaviy tashkilotlarning risklari ham kiradi”.

Tizimli ahamiyatga ega moliyaviy tashkilotlar deganda, moliyaviy tizimning barqarorligi umuman barqaror ishlashiga bog'liq bo'lgan moliyaviy tashkilotlar tushuniladi. Makroprudensial siyosatni shakllantirish uchun Markaziy bank: 1) moliya tizimining tizimli risklarini muntazam ravishda kuzatib boradi; 2) moliya bozori va moliya tashkilotlarini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda, moliyaviy tashkilotlarni tizimli ahamiyatga ega deb tasniflash tartibini belgilaydi; 3) tizimli muhim moliyaviy tashkilotlar ro'yxatini shakllantiradi; 4) mustaqil ravishda yoki boshqa davlat organlari bilan birgalikda o'z vakolatlari doirasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi; 5) tizimli moliyaviy inqiroz yuzaga kelgan yoki tahdid bo'lgan taqdirda, mustaqil ravishda moliyaviy tashkilotlar tomonidan bank va boshqa operatsiyalarning ayrim tur-lariga cheklovlar qo'yadi.

4. “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi” Qonuni 67-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish taklif etildi: “Markaziy bank tomonidan qo'llanadigan choralar va sanksiyalarni qo'llashdan maqsad O'zbekiston Respublikasida bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar, iste'molchilar va boshqa kreditorlarning manfaatlari-

ni himoya qilish uchun tezkor javob berish hamda muammolarni tuzatish va bartaraf etishdir”.

5. “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni 9-moddasiga ko'ra, Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy va yuridik shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

6. Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonuni 3-moddasida normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat ekanligi belgilangan. Shuningdek, ushbu qonunning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning turlari belgilangan bo'lib, ammo ushbu ro'yxatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilmagan. Bu esa o'z navbatida, Markaziy bank qarori asosida qo'llanadigan chora va sanksiyalarning qonuniyligi hamda adolatliligiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjat sifatida Markaziy bankning qarori “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonunga ko'ra, hujjatlarni tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, e'lon qilish va rasmiy nashrlarda chop etish kabi talablarga javob berishi lozim.

REFERENCES

1. Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo'rayev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati [Banking control in international practice]. Tashkent Financial Institute. Tashkent, Iqtisod-Moliya Publ., 2007, pp. 34–35.
2. Berdiyarov B.T. Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi talablarini O'zbekiston bank amaliyotida qo'llash istiqbollari [Prospects of applying the requirements of the Basel Committee on Banking Supervision in the banking practice of Uzbekistan]. Tashkent, 2017, pp. 16–17.

3. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Bank huquqi [Banking law]. Tashkent, Moliya Publ., 2007, p. 76
4. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan [Financial law of the Republic of Uzbekistan]. Team of authors. Tashkent, Niso Polygraph Publ., 2022, pp. 549–550.
5. Hojiyev E., Samig'jonov F. O'zbekiston Respublikasi bank huquqi [Banking law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2007, p. 50.
6. Davlatov V.X., Ergashev I.A., Rahmatov E.J. Xalqaro moliya va bank huquqi [International finance and banking law]. Tashkent, TSUL Publ., 2019, pp. 80–81.
7. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari [Issues of ensuring liquidity and solvency of commercial banks of the Republic of Uzbekistan]. Doctoral Dissertation (DSc). Tashkent, 2020, p. 45.
8. Abdullayev A.J. et al. Pul va banklar [Money and banks]. Bukhara, Durдона Publ., 2021, p. 228–229.
9. Abdullayeva Sh. Bank ishi [Banking]. Tashkent, Tashkent Financial Institute, 2003, pp. 63–64.
10. Federal Reserve of USA. Available at: <https://www.federalreserve.gov/aboutthefed/files/the-fed-explained.pdf>
11. Federal Reserve of USA Available at: <https://www.federalreserve.gov/aboutthefed/section21.htm> / <https://www.federalreserve.gov/aboutthefed/files/the-fed-explained.pdf>
12. Bank of Canada Act (R.S.C., 1985, c. B-2) Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/b-2/page-4.html#docCont//>
13. Act R.S.C. Office of the Superintendent of Financial Institutions, 1985, 3rd Supp., part 1. Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/O-2.7/page-1.html#h-383621>
14. Monetary authority of Singapore act 1970. Available at: <https://sso.agc.gov.sg/Act/MASA1970?WholeDoc=1#P14A->
15. Bank of Korea act. Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=4099&lang=ENG
16. Act on the establishment of Financial services commission. Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=47931&type=part&key=23
17. Rahimova O.O., Bozorov Sh.T. Bank huquqi [Banking law]. Tashkent, pp. 87–88.
18. Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasining moliya huquqi [Financial law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2002, p. 269.
19. Li A. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan [Financial law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 326.
20. Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi bank huquqi [Banking law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2011, p. 235.
21. R.S.C. Bank of Canada Act. 1985, No. B-2. Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/b-2/page-3.html#docCont>
22. Legal analytical base. Available at: <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=cc90c51e-9095-4520-9620-1f27230a7694>
23. Federal Reserve of USA. Available at: <https://www.federalreserve.gov/supervisionreg/enforcement-actions-about.htm>
24. Federal Act on the Swiss National Bank. Available at: <https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/2004/221/en>
25. Act on Bank and Saving Bank. Available at: <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/ch/pdf/ch-banking-act-en.pdf>
26. Borens P., Favre O., Tribolet G. Law and Practice. Banking Regulation 2024. Switzerland. 2023, December 12. Available at: <https://practiceguides.chambers.com/practice-guides/banking-regulation-2024/switzerland>